

ALISHER NAVOIY - SO'Z SAN'ATINING GULTOJI

Abdirahmonova Dilnoza Ismoil qizi

dilnozaabdurahmonova954@gmail.com

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universiteti*

Annotasiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning hayoti va ijodi, turkiy adabiyotdagi o'rni, asarlarining bugungi kundagi ahamiyati, Navoiy lirikasi haqida so'z boradi. Navoiyning turkiy tilni ko'klarga ko'tarib, bu tilda yuksak badiiy asarlar yaratgan shoir va mutafakkir sifatida til va adabiyot rivojiga katta hissa qo'shgan ta'kidlanadi. Shuningdek, Navoiy asarlarining bugungi kunda ma'naviy tarbiya, axloqiy qadriyatlarni shakllantirishdagi o'rni yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, temuriylar hukmronligi, turkiy til, diniy-axloqiy asarlar, g'azallar, nasriy asarlar, "Xamsa" dostoni

Abstract: This article discusses the life and works of Alisher Navoi, his role in Turkic literature, the significance of his legacy in the modern era, and the characteristics of his lyrical poetry. It emphasizes Navoi's outstanding contribution to the development of language and literature as a poet and thinker who elevated the status of the Turkic language by creating profound literary works in it. The article also highlights the relevance of Navoi's works in shaping spiritual education and moral values in contemporary society.

Keywords: Alisher Navoi, Timurid dynasty, Turkic language, religious-ethical works, ghazals, prose works, "Khamasa" epic

Kirish

G'urbatda g'arib, shodumon bo'lmas emish,

El anga shafiq-u mehribon bo'lmas emish.

Oltin qafas ichra gar qizil gul bitsa

Bulbulg'a tikondek oshiyon bo'lmas emish

Alisher Navoiy - she'riyat gultoji, turkiy adabiyot me'mori, so'z san'atkoridir. Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Temuriylar hukmronligining yirik madaniy markazlaridan biri bo'lgan Hirot shahrida tavallud topgan. Otasi G'iyosiddin Muhammad Temuriylar xonadoniga yaqin kishilardan bo'lgan. Navoiy yoshligidanoq ilm-fan, she'riyat, san'atga qiziqish bilan o'sdi. Navoiyning bolaligi Shohruh hukmronligining so'nggi yillariga to'g'ri kelgan. U temuriyzodalar, xususan bo'lajak podshoh Husayn Boyqaro bilan birga tarbiyalangan.

Muhokama va natijalar

Navoiy 4 yoshida maktabga borib, tez savod chiqarib, turkiy va forsiy tildagi she'rlarni o'qib, yod ola boshlagan. O'zbek tili bilan bir qatorda forsiy tilni ham mukammal egallagan. Alisher Navoiy 10—12 yoshlaridan she'r yoza boshlagan. Tarixchi Xondamirning yozishicha, yosh Alisher iste'dodidan mamnun bo'lgan mavlono Lutfiy, uning:

Orazin yopqoch, ko'zumdan sochilur har lahza yosh,

Bo'ylakim, paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'ach quyosh matla'li g'azalini tinglab: «Agar muyassar bo'lsa edi, o'zimning o'n-o'n ikki ming forsiy va turkiy baytimni shu g'azalga almashtirardim...» deb yosh shoirning nomiga duolar o'qigan. Alisher Navoiy 15 yoshida shahri bo'ylab shoir sifatida keng tanilgan. Turkiy va forsiy tillarida qalam tebratgan. Turkcha she'rlariga "Navoiy", forsha she'rlariga "Foniy" taxallusini qo'llagan.

XV asr madaniy muhiti. Alisher Navoiy ma'naviy hayotda fors tilining maqomi borgan sari oshib borayotgan bir paytda turkiy tilning badiiy imkoniyatlarini isbotlab turkiy dunyoga yangi ruh olib kirdi. Tun uzoq cho'zilgan turkiy dunyoda yangi tong, yangi nafas, yangi jilvalar bo'y berdi. Bu tong minglab iste'dod jilg'alarining ko'z ochishiga zamin yaratdi. O'z davrining ilm va san'at homiysi temuriy hukmdor Husayn Boyqaro Navoiyga quyidagicha ta'rif bergan: "Turkiy tilning o'lg'on jasadig'a Masih anfosi birla ruh kiyurdi va ruh topg'onlarga turkiy oyin alfoz tor-u pudidan to'qulg'on hulla va harir kiyurdi", - ya'ni turkiy til forsiy va arabiy tilning soyasida qolib ketayotgan bir paytda unga Masih nafasidek yangi hayot ato etdi. Bundan bahramand bo'lgan she'r ahliga turkiy tilning nafis va jozibali so'zlaridan jilva etgan o'z ijodiy merosini hadya etdi.

Tarix zarvaraqlarida shunday insonlar borki, ular qilich bilan emas, qalam bilan olamni larzaga sola oladi. Shunday insonlardan eng ulug'vori Alisher Navoiy edi. Alisher Navoiy so'z qudrati bilan millatni uyg'otgan, o'z asarlari bilan esa adolat va haqiqatni baralla kuylagan sherpanja. Navoiyning lirikasi - turkiy tilning sohir ohanglaridan yaraldi, jilvalandi, tarannum etdi:

O'z vujuding'a tafakkur aylagil,

Neki istarsen, o'zingdin istagil.

Ya'ni ushbu misralar orqali ifodalangan g'oya shundan iboratki, o'z mavjudliging, hayoting, kimliging haqida tafakkur yurit va o'zing xohlagan barcha maqsadlarga o'z mashaqqating va harakating orqali ega bo'l. Navoiy nasriy asarlari sharq mumtoz adabiyotining noyob durdonalaridan biridir. Ushbu asarlar orqali Navoiy sevgi, komillik, insoniylik ohanglarini tarannum etdi. Alisher Navoiyda o'zbek tilida «Xamsa» — besh doston yaratish maqsadi yoshligidan bo'lgan. Bu maqsadini 1483—1485 yillarda amalga oshirdi. Asar o'zbek adabiyoti shuhratini olamga yoyib, jahon adabiyotining durdonalaridan biriga aylandi. Navoiy "Xamsa" dostonini yozarkan, ushbu misralar orqali bu ish oson emasligini, o'zidan oldingi xamsanavislar

panjasiga panja urmoq uchun maydoniga she'r bo'lib jangga chiqishi kerakligini ta'kidlaydi:

Emas oson bu maydon ichra turmoq,
Nizomiy panjasiga panja urmoq.
Kerak sher oldida ham sher jangi,
Agar sher o'lmasa, bori palangi.

Qanchadan qancha tarixnavis va nazmgo'ylar hukmdorlar madhiyaga she'r bitib, saroy eshigidan nari chiqolmagan bir paytda Navoiy xalqni o'yladi, xalq taqdiriga befarq qarab turolmadi. Adabiyotni hukmdorlar saroyidan xalqning yuragiga olib tushdi, ularning dardini kuyladi. Xondamirning asarlarida qayd etilishicha, 1480-yillar davomida Alisher Navoiy o'z mablag'lari hisobidan Hirotda va mamlakatning boshqa shaharlarida bir necha madrasa, 40 ta rabot, 17 masjid, 10 xonaqoh, 9 hammom, 9 ko'prik, 20 ga yaqin hovuz qurgandirgan. Ular orasida Hirotdagi «Ixlosiya», «Nizomiya» madrasalari, «Xalosiya» xonaqohi, «Shifoia» tibgohi, Qur'on tilovat qiluvchilarga mo'ljallangan «Dorul-huffoz» binosi, Marvdagi «Xusraviya» madrasasi, Mashhaddagi «Dorul-huffoz» xayriya binosi kabi noyob me'morlik yodgorliklari bor.

Ilm-fan yuqori darajada taraqqiy etgan hozirgi davrda Navoiy asarlari bosma hamda elektron ko'rinishlarda dunyoning turli nuqtalarida o'quvchilariga ega bo'lib kelmoqda. Zamonaviy dunyoda Navoiy asarlari ayniqsa ta'lim, ma'naviyat, axloq va milliy o'zlikni anglashda ulkan tarbiya maktabi bo'lib xizmat qilmoqda. Uning "Mahbub ul-qulub" asari Navoiy hayotining so'ngi yillarida yozilgan bo'lib, hayotiy tajriba va axloqiy pand-nasihatlarni manbasi hisoblanadi. "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida esa Navoiy turk tilining buyuk bilimdoni va homiysi bo'lib maydonga chiqadi. Ona tilining boshqa tillardan mutlaqo qolishmasligini isbotlab Navoiyning "Arbain", "Nazm ul-javohir" asarlari esa hozirgi kunda ham diniy bilimlarni egallashda qo'llanma va yo'llanma bo'lib kelmoqda. Navoiy asarlari nafaqat ma'naviy balki ilmiy dunyoqarashni kengaytirishning ham asosiy vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, bugun Alisher Navoiy haqli suratda jahon madaniyatining mumtoz vakillari safidan o'rin oldi. Uning asarlari jahondagi yuzlab tillarga tarjima qilindi. Dunyo ahli uning merosi bilan qiziqmoqda, asarlarida tarannum etilgan oliyjanob g'oyalar va falsafiy mushohadalardan zavq olmoqda. Shoir haykallari Yaponiyaning Soka universiteti hovlisida, Rossiya poytaxti Moskva va Ozarbayjon poytaxti Boku shaharlarida qad ko'tardi. Navoiy shunchaki shoir va davlat arbobi emas, balki ma'rifat mash'ali, turkiy til sultoni. Uning asarlaridagi toza ruh biz bilan har bir satrda, har bir ilhomda, har bir yurakning urishida. Zero, Navoiyni anglash - o'zlikni anglash, Navoiyga ehtirom - millatga ehtirom.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurazzoq Rafiyev, Nazira G'ulomova. Ona tili va adabiyot."ShARQ" NASHRIYOT - MATBAA AKSIYADORLIK KOMPANIYASI BOSH TAHRIRIYATI. Toshkent-2013.191-bet
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. J. 1. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.
3. Bafojev B. Navoiy ummonidan dur izlab... – Buxoro: Buxoro, 2022.
4. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. T. 12. – Toshkent: Fan, 1996.
5. Ishoqov Yo. Navoiy poetikasi. – Toshkent: Fan, 1983.
6. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. T. 16. – Toshkent: Fan, 2000.
7. Sattorov Sh. Mir Alisher Navoiy haqida 15 ma'lumot, 10 hikmat va bir rivoyat. // Janob, 2017-yil, 1-son.
8. "Oqquyunli muxlislar devoni"ning Tokio nashri (Adabiyotshunos Aftondil Erkinov bilan jurnalist Mahmud Sa'diy suhbat). // O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2016-yil, 5-fevral.
9. Dadaboyev H. Buyuk tilshunos. // O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2016-yil, 5-fevral.
10. Navoiy, A. Xazoyin ul-maoniy. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. – 560 b.